

**ZAMONAVIY DAVRDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING  
RIVOJLANISHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14601704>

**Tolegenova Shinargul Sansizbay qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy davrda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining oziga xos jihatlari, qarashlar, talimotlar haqida so'z yuritiladi. Huquq sohasi vakillarining fikrlari keltirilib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, demokratiya, inson huquqlari liberalizm.*

Hozirgi davr huquqiy davlati- eng avvalo inson huquqlari va erkinliklari hokimyatni amalga oshirishda xalqning ishtirokini taminlovchi demokratik davlat hisoblanadi. U yuqori huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va ishonchlarin qonun doirasida himoya qilish imkoniyati taminlanadi. Huquqiy davlat tushunchasi- insonparvarlik inson huquqlari siyosiy va iqtisodiy erkinliklar, liberalizm kabi zarur umuminsoniy qadryatlardan biri hisoblanadi. Hokimyatning bo'linish prinsipi yordamida davlat huquqiy usulda paydo bo'lib ham faoliyat ko'rsatadi bu siyosiy hayotning demokratyalashuv talabidir. Huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mazmunini, siyosiy shaklni jamlaydi. Fuqarolik jamiyati shaxslarning oddiy yig'indisi emas balki ular o'rtasida yuzaga keladigan turli hil bog'liqliklar, hamkorlik va birlikning bir korinishi hisoblanadi. Zamonaviy davrda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni bilish uchun dastavval fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchalarini keng ochib berish kerak.

Dastlab tarqoq bo'lgan, bazida alohida qarashlar sifatida namoyon bo'lgan ideyalar keyinchalik huquqiy davlatning ixchil va yagona konsepsiyasi yuzaga keldi. Uning asoschilari Dj Lokk, I Kant, V Gumbold, G Yellinek, K Shmidt hisoblanadi. Ushbu olimlarning qarashlarida ayrim farqlar bolsa da, davlatning o'zi huquqiy qonun-qoidalarga amal qilishi ham buni ijtimoiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilaridan talab qilish kerakligidan iborat.

Huquqiy davlat haqida so'z yuritmasdan oldin fuqarolik jamiyati haqidagi tushunchalarga to'xtalib o'tamiz. Fuqarolik jamiyati haqida dastlabki tushunchalar Aristotelning "Siyosat" asarida bayon qilingan. Unda aytilishicha insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida paydo bolishi orqali taminlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida etibor beriladi. Bu ideyalar XVII asrga kelib rivojlandi. Asosan T. Gobbs asarlarida mukammallashtirildi.

XVIII asr Buyuk fransuz iqtilobi davrida Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi joriy etilishi bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. puqarala.Sababi jamiyatning teng huquqli a'zolari fuqarolar tushunchasi paydo bolib,ular jamiyat va davlat mavqeyi bilan bog'langan shaxsiy mavqeni anglay boshladi.Kant,Gegel,Russo ilgari surgan fikrlar fuqarolik jamiyatining yangidan yangi qirralarin umuminsoniy qadriyat sifatidagi mazmunini ochib berdi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi G.Gegel va boshqa ayrim faylasuflar asarlarida yanada rivojlantirildi.Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy tushunchaga Gegel eng yaqin keldi.U fransuz anglo-sakson va nemis ijtimoiy mutafakkirlari yutuqlarini tizimlashtirib,fuqarolik jamiyati oiladan davlatga dialektik harakatning alohida bosqichini ko'rsatadi degan xulosaga kelgan.G.Gegel fuqarolik jamiyatini davlatning kelib chiqishi haqida shartnoma nazariyasi bilan bog'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan xulosa qilib fuqarolik jamiyati bu fuqarolarning erkin teng huquqli a'zolaridan iborat va teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan fuqarolar yig'indisi hisoblanadi.

Huquqiy davlat haqida so'z yuritmasdan oldin davlat atamasi haqidagi qarashlarning tarixiga to'xtab o'tish joiz. Davlat atamasi haqida dastlabki tushunchalar va qarashlar milodtan avvalgi 3-4-minginchi yilliklarda Misr,Mesopatamiya,Hindston,Xitoyda paydo bo'lgan.Ular asosan diniy-mifologik xarakterda bo'lgan edi. Avesto talimotiga kora,hokimyat,haqiqat,adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga yaxshi fikr,yaxshi so'z, yaxshi amalga tayanadi.Davlatning vazifasi yovuzlikga qarshi yaxshilik,tinchlik va insonlarning baxtli hayot kechirishini taminlash hisoblanadi.

Huquqiy davlat bu-fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qonun bilan himoya qilinadigan jamiyat hisoblanadi.Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu xalqaro normalarning tan olinishi hisoblanadi. Huquqiy davlat xalqaro huquqni hisobga oladi va unda xalqaro huquqiy normativ hujjatlarga amal qilish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda huquqiy davlat barcha fuqarolarning huquqlarini himoyalovchi va ularning xavfsiz hayot kechirishi uchun xizmat qiladigan davlat tizimi hisoblanadi.Huquqiy davlatning asosiy vazifasi shaxsiy erkinlikni himoya qilish, majburiyatlarga amal qilish adolatsizlik va yovuzlikning oldini olish davlat boshqaruv organlarining nazorat va huquqiy tizimini amalga oshirish,siyosiy iqtisodiy nazoratni amalga oshirish va xalqaro huquqga va uning normativ hujjatlariga amal qilish hisoblanadi.Fuqarolik jamiyati tushunchasi murakkab tushunchalarning biri bo'libgina qolmasdan u o'zining rivojlanish bosqichiga ham ega. Zamonaviy dunyoda huquq sohalarining rivojlangani sari bu tushuncha yuqori darajada rivojlanmoqda.Sababi, hozirgi kunda insonlarning siyosiy,ijtimoiy faolligini, xalqaro munosabatlardagi ishtiroki oshib bormoqda.Bularning barchasi kelgusida fuqarolik jamiyatning yanada rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyev X.B. va Odilqoriyev X.T. Umumiy tahriri ostida, "Davlat va huquq nazariyasi" Iqtisodiyot va huquq dunyosi" , 2000
2. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. - T., 2002
3. Аристотель. Политика, Сочинения в 4-х томах М., 1983. Т. 4
4. Гегель. Г. Философия права М., 1990